

**MILLIY IQTISODIYOTDA OILAVIY BIZNESNING O'RNI VA UNING
XOTIN-QIZLAR BANDLIGINI TA'MINLASHDAGI AHAMIYATI**

Abdullaeva Shaxnoza Esonovna

Farg'onha davlat universiteti,
Jahon va mintaqal iqtisodiyoti kafedrasi o'qituvchisi

**РОЛЬ СЕМЕЙНОГО БИЗНЕСА В НАЦИОНАЛЬНОЙ ЭКОНОМИКЕ И
ЕГО ЗНАЧЕНИЕ В ОБЕСПЕЧЕНИИ ЗАНЯТОСТИ ЖЕНЩИН**

Абдуллаева Шахноза Эсоновна

преподаватель кафедры мировой и региональной экономики
Ферганского государственного университета

**THE ROLE OF FAMILY BUSINESS IN THE NATIONAL ECONOMY
AND ITS IMPORTANCE IN ENSURING WOMEN'S EMPLOYMENT**

Abdullayeva Shakhnoza Esonovna

lecturer at Fergana State University,
Department of world and regional economics

Annotatsiya. Maqolada milliy iqtisodiyotda oilaviy tadbirkorlikni rivojlanishi, o'zbek a yollarining ish bilan ta'minlanishi va oilaviy tadbirkorlikga asoslangan moddiy manfaatlarini ta'minlash uchun biznes g'oyalarini roli haqida yoritilgan.

Kalit so'zlar. Milliy iqtisodiyot, oilaviy tadbirkorlik, bozor munosabatlari, mehnat munosabatlari, biznes g'oya.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan iqtisodiyotni erkinlashtirish va islohotlarni yanada chuqurlashtirish jarayonidan ko'zlangan asosiy maqsadlardan biri, iqtisodiyotning davlat va nodavlat sektorida xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish uchun yanada keng imkoniyatlar tizimini shakllashtirish bilan birga oilalarni ish bilan bandligini ta'minlashga qaratilganligidir. Ana shu faoliyat zamirida oila tadbirkorligi ham o'ziga xos muhim o'rinn tutadi.

Binobarin, bozor munosabatlarining rivojlanishi sharoitida mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarning pirovard natijasi oilalar iqtisodiy farovonligini oshirishga qaratilgan. Ushbu farovonlikka erishish, ko'p hollarda oilada tadbirkorlikni yuritish bilan bog'liq bo'ladi. Qolaversa, jamiyat taraqqiyotining muhim shartlaridan biri uning negizini tashkil etuvchi har bir oilaning to'kin, farovon turmush kechirishidir. Albatta, o'tish davrini boshidan kechirayotgan davlatimiz oilalarni ham iqtisodiy, ham ma'naviy, ham ijtimoiy jihatdan qo'llab-quvvatlashga alohida e'tibor qaratmoqda. Oilaning turmush darajasini oshirish, oila va bola salomatligini

yaxshilash, ajralishlar sonini kamaytirish maqsadlari bo'yicha kompleks dasturlarning ishlab chiqilishi va ular ijrosining ta'minlanishi natijasida sezilarli yutuqlar qo'lga kiritilmoqda. Shunga qaramasdan respublikamizda o'ta kambag'al va o'ta boy bo'lman, o'rtahol oilalarni shakllantirish, ayniqsa qishloqlardagi oilalarni ijtimoiy-iqtisodiy ahvolini yaxshilash bilan bog'liq muammolar hali dolzarbligicha qolayotganligi bu masalaga alohida e'tibor qaratishni talab qiladi. Bunda, oilaviy biznesni rivojlantirish muhim ahamiyatga ega.

Oilaviy biznes – kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning o'ziga xos tashkiliy-huquqiy shakli sifatida mamlakat iqtisodiyotidagi ahamiyati katta bo'lib, u bir qator afzalliklarga ega, jumladan moslashuvchanlik va innovatsiyalarning yuqori darajasi, o'zgaruvchan bor talablariga tez moslashish qobiliyati, oila institutini mustahkamlash kabi muhim ijtimoiy vazifani bajaradi, bolalarni muvaffaqiyatli tarbiyalashga imkon bergen holda, ularni ijtimoiylashtirishga hamda demografik muammolarni hal qilishga imkon beradi, ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga bo'lgan yuqori intilish darajasini ta'minlaydi, iqtisodiyotning barqaror rivojlanishining zaruriy sharti bo'lgan fuqarolarning tadbirkorlik nuqtai nazaridan o'z-o'zini ro'yobga chiqarishga imkon beradi, jamiyatda ijtimoiy-iqtisodiy holatning barqarorlashuviga zamin hozirlaydi.

Ayniqsa, ko'p hollarda ayollarimizning ishlashlari uchun qarshilik ko'rsatayotgan o'zbek oilalari uchun oilaviy biznesni yo'lga qo'yish qo'shimcha daromad manbai sifatida ayni muddaodir.

Jumladan, mahallalarda oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish maqsadida mamlakatimizda bir qator chora tadbirlar amalga oshirilmoqda. Bunga esa, "Mahallada tadbirkorlikni rivojlantirish, aholi bandligini ta'minlash va kambag'allikni qisqartirish masalalari bo'yicha hokim yordamchilari faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Prezident qarori (PQ-31-sun, 03.12.2021 y.) qabul qilinganligi ayni muddao bo'ldi. Ushbu qarorga muvofiq, 2022 yilda aholini tadbirkorlik faoliyatini yo'lga qo'yish, o'zini- o'zi band qilish va ish bilan ta'minlash bo'yicha jami 2 trln. 159 mlrd. 146 mln. so'm (200 million 664 ming dollar) subsidiya ajratildi.

Shu bilan birga, 2022 yilda oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirishda imtiyozli kreditlar yillik 14 foizda:

-oilaviy tadbirkorlik, daromad topish bilan shug'ullanish va faoliyatini kengaytirish istagidagi aholi hamda tadbirkorlarga- 3 oydan 6 oygacha imtiyozli davr bilan 3 yilgacha;

-chorvachilik (qoramol, qo'y, echki), baliqchilik va parrandachilik (tuxum yo'nalishi) uchun- 1 yilgacha imtiyozli davr bilan 3 yilgacha;

-bog‘dorchilik, uzumchilik va limonchilikni tashkil etish, issiqxona, qishloq xo‘jaligi texnikasi va asbob uskunalarini xaridi uchun- 3 yilgacha imtiyozli davr bilan 7 yilgacha;

–“hunarmand” uyushmasi a’zolari uchun – 3 yilgacha muddatga hamda aylanma mablag‘larini to‘ldirish uchun 18 oygacha muddatga ajratilishi yo‘lga qo‘yildi. Kredit mablag‘lari xokim yordamchilari tavsiyasi bilan berilishi belgilab qo‘yilgan.

Oilaviy biznesni tashkil qilishning muhim xususiyati shundaki, unda o‘zaro ishonchli odamlar, ya’ni oila a’zolari ishtirok etadi. Bu esa, olinadigan daromadning oilani ichida qolishini ifodalaydi. Daromadning ko‘p bo‘lishi har bir oila vakilining serg‘ayrat harakatiga bog‘liq bo‘ladi va bu oilaning farovon turmush kechirishiga zamin yaratadi. Shu o‘rinda, oilaviy biznesni yo‘lga qo‘yishda xotin-qizlarimizning o‘rni haqida gapiradigan bo‘lsak, har bir ayol uchun biznes bu – o‘z professional ko‘nikmalarini yuzaga chiqarish uchun ajoyib imkoniyat bo‘lib hisoblanadi.

Hozirgi kunda oilaviy biznesning juda ko‘p turlari rivojlanib bormoqda. Bu borada, xotin-qizlarimiz uchun mos keluvchi ba’zi bir biznes-g‘oyalarni taklif etishimiz mumkin:

1. Repetitorlik xizmatlarini ko‘rsatish.
2. Kiyim tikish atel`esini ochish.
3. Xend - meyd loyihasini ochish.
4. Tarjimonlik xizmatlarini ko‘rsatish.
5. Xususiy bog‘cha yoki o‘quv markazlarini ochish.
6. Bolalar uchun ijod markazlarini ochish.
7. Fermer xo‘jaligini yo‘lga qo‘yish kabilardir.

Biznes-g‘oyalardan xend- meyd loyihasi haqida fikr yuritadigan bo‘lsak, ingliz tilidan tarjima qilinganda “hand-made” – “qo‘lda qilingan” degan ma’noni ifodalaydi. Qo‘l mehnati bilan yaratilgan buyumlarga nisbatan hozirgi kunda talabning oshib borayotganligini inobatga olgan holda aytish mumkinki, ayollarimiz uchun uyda o‘tirib, yaxshigina daromad topish imkonini yaratiladi. Bu kabi biznes-g‘oyalarni yana ko‘plab keltirishimiz mumkin, ammo, aynan yuqoridagi biznes-g‘oyalar o‘zbek ayollarining oiladan ajralmagan holda yoki xonadondan tashqariga chiqmagan holda faoliyat yuritish imkonini beradi.

Qolaversa, davlatimiz tomonidan yaratilayotgan imkoniyatlardan foydalanib, oilaviy biznesni yo‘lga qo‘yish va shu asosda o‘z oilasining farovon, t o‘kin, tinch yashashiga zamin yaratish, albatta, maqsadga muvofiq deb o‘ylayman.

REFERENCES

1. Mannopova, M. S. (2018). Turizm yo`nalishida ta`lim berishning o`ziga xos xususiyatlari. *Бухоро вилоятининг туристик ва инвестицион салоҳияти халқаро илмий-амалий конференция материаллари*, 1(6), 307-310.
2. Маннопова, М. С. (2019). Хорижий мамлакатларда аҳоли бандлигини таъминлашнинг моделлари ва уларнинг ўзига хос хусусиятлари. *Европа Иттифоқи Erasmus+дастурининг MAGNET – Университетлар Ўзбекистонда ўрта ёши аҳолини ўқитиши ва касбга тайёрлаш марказларининг асосий ҳамкори*, 1(5), 150-151.
3. Маннопова, М. С. (2019). Инвестиция бу мамлакат драйвери –истиқболли иқтисодиётнинг кафолатидир. *Фаол инвестициялар ва ижтимоий ривожлантиришининг долзарб масалалари. Халқаро илмий-амалий конференция илмий мақолалар ва материаллари тўплами*. *Андижон*, 1(7), 106-109.
4. Маннопова, М. С. (2019). Кластеры-как драйвер экономики. *II-Международная научно-практическая конференция Аграрная экономика в условиях глобализации и интеграции ВНИОПТУСК*. г.Москва, 1(9), 23-25.
5. Маннопова, М. С. (2020). Фарғона вилоятида мева-сабзавотчилик соҳасида эришилган ютуқлар ва камчиликлар. *Фарғона вилоятини инновацион ривожлантириши: муаммолар ва ечимлар мавзусидаги республика илмий-амалий конференция материаллари Фарғона*, 1(6), 124-127.
6. Маннопова, М. С. (2019). Озиқ-овқат саноати равнақининг беқиёс аҳамияти. *Ўзбекистон иқтисодий ахборотномаси*, 1(1), 44-47.
7. Маннопова, М. С. (2022). Ўзбекистонда мева-сабзавотчилик йўналишидаги кластерларни ривожлантириш ва бошқаришнинг асосий вазифалари. *Biznes-эксперт*, 1(6), 48-52.
8. Халматжанова, Г. Д., & Маннопова, М. С. (2020). РАЗВИТИЕ НАЦИОНАЛЬНОЙ ЭКОНОМИКИ С УЧЁТОМ ТЕНДЕНЦИЙ РАЗВИТИЯ МИРОВОЙ ЭКОНОМИКИ. In *МИНТАҚА ИҚТИСОДИЁТИНИ ИНВЕСТИЦИЯЛАШНИНГ МОЛИЯВИЙ-ХУҚУҚИЙ ВА ИННОВАЦИОН ЖИҲАТЛАРИ* (pp. 238-244).
9. Khalmatjanova, G. D., & Mannopova, M. S. (2021). Priority areas in agricultural development in the Republic of Uzbekistan. In *The Challenge of Sustainability in Agricultural Systems: Volume 1* (pp. 49-54). Cham: Springer International Publishing.
10. Маннопова, М. С. (2019). Основные проблемы в сфере переработки плодоовощной продукции в Республике Узбекистан. *Образование и наука в России и за рубежом*, (16), 175-180.
11. Маннопова, М. С., & Абдуллаева, Ш. Э. (2021). Ўзбекистонда қишлоқ хўжалигини диверсификациялаш жараённада мева-сабзавот кластерларини ривожлантиришнинг ўзига хос хусусиятларини. *Экономика и социум*, 10, 89.

12. Маннорова, М. С. (2020). РАЗВИТИЕ КЛАСТЕРОВ В ПЛОДООВОЩНОМ НАПРАВЛЕНИИ В СЕЛЬСКОМ ХОЗЯЙСТВЕ И ИХ ФУНКЦИИ. In *МИНТАҚА ИҚТИСОДИЁТИНИ ИНВЕСТИЦИЯЛАШНИНГ МОЛИЯВИЙ-ХУҚУҚИЙ ВА ИННОВАЦИОН ЖИҲАТЛАРИ* (pp. 320-324).
13. Маннорова, М. С., & Хасанов, И. М. (2020). РАЗВИТИЕ ИНВЕСТИЦИЙ–ГАРАНТИЯ ПЕРСПЕКТИВНОЙ ЭКОНОМИКИ. In *МИНТАҚА ИҚТИСОДИЁТИНИ ИНВЕСТИЦИЯЛАШНИНГ МОЛИЯВИЙ-ХУҚУҚИЙ ВА ИННОВАЦИОН ЖИҲАТЛАРИ* (pp. 301-306).
14. Mannopova, M. S., & Khalildinov, A. A. (2022). THE IMPORTANCE OF THE EFFECTIVE USE OF FRUIT VEGETABLE CLUSTERS IN AGRICULTURE OF UZBEKISTAN. *Gospodarka i Innowacje.*, 29, 117-120.
15. Mannopova, M. S. (2022). Main Directions of Development of Fruit and Vegetable Clusters in Agriculture of Uzbekistan. *American Journal of Economics and Business Management*, 5(11), 106-109.
16. Mannopova, M., & Abdullaeva, S. (2022). THE WORK DONE AND THE DESIGNATED TASKS FOR THE DEVELOPMENT OF FRUIT AND VEGETABLE CLUSTERS IN UZBEKISTAN. *Gospodarka i Innowacje.*, 24, 1126-1129.
17. Абдуллаева, Ш. Э., & Маннорова, М. С. (2022). Основные направления развития и управления плодовоовощными кластерами. *Ta'lim fidoyilari*, 6(7), 507-512.
18. Abdurahimovna, C. D., & Sultanbekovna, M. M. (2022). Cost and Accounting Concepts in Accounting and Their Accounting. *Global Scientific Review*, 4, 21-26.
19. Маннорова, М. С. (2022). Ўзбекистон қишлоқ хўжалигида мева-сабзавотчилик кластерларини ривожлантиришнинг асосий йўналишлари. *New innovations in national education*, 1(6), 12-16.
20. Маннорова, М. С. (2022). Жаҳон мамлакатларида қишлоқ хўжалиги маҳсулотларини ишлаб чиқаришнинг самарали ёндошувлари. *New innovations in national education*, 1(6), 4-11.
21. Юлдашева, Г. А., & Абдуллаева, Ш. Э. (2021). Инновации в рамках национальных инновационных систем. *Интернаука*, (26), 6-8.
22. Abdullaeva, S. E. (2021). The urgency of attracting investment to banks. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 11(8), 435-440.
23. Абдуллаева, Ш. (2020). ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИДА ИНВЕСТИЦИЯЛАРДАН ФОЙДАЛАНИШ САМАРАДОРЛИГИ. In *МИНТАҚА ИҚТИСОДИЁТИНИ ИНВЕСТИЦИЯЛАШНИНГ МОЛИЯВИЙ-ХУҚУҚИЙ ВА ИННОВАЦИОН ЖИҲАТЛАРИ* (pp. 506-512).

24. Абдулаева, Ш. Э., & Жакбарова, З. С. (2020). РЕГИОНАЛЬНЫЕ ОСОБЕННОСТИ ЗАНЯТОСТИ НАСЕЛЕНИЯ. In *МИНТАҚА ИҚТISODIЁТИНИ ИНВЕСТИЦИЯЛАШНИНГ МОЛИЯВИЙ-ХУҚУҚИЙ ВА ИННОВАЦИОН ЖИҲАТЛАРИ* (pp. 345-350).
25. Абдулаева, Ш. Э. (2019). Современное состояние и перспективы развития банковской системы в Узбекистане. *Образование и наука в России и за рубежом*, (16), 180-182.
26. Khakimov, D. R., Kurbanov, D., & Khalildinov, A. A. (2022). Formation of New Economic Mechanisms in the Field of Education. *American Journal of Economics and Business Management*, 5(11), 76-81.
27. Raximov, D. S. (2022). DIRECTIONS OF DIVERSIFYING INNOVATION PROCESSES IN THE INDUSTRY NETWORK. *World Economics and Finance Bulletin*, 16, 107-110.
28. Khakimov, D. R., Khalildinov, A. A., & Abdullaeva, S. E. (2022). THE MAIN FACTORS OF THE DEVELOPMENT OF MARKET RELATIONS IN THE FIELD OF HIGHER EDUCATION. *Gospodarka i Innowacje.*, 29, 94-100.
29. Қурбонов, Д. Х. (2022). Олий таълим соҳосида бозор муносабатлари ривожланишининг асосий омиллари. *Biznes-эксперт*, 1(6), 39-41.
30. Khalildinov, A. A., & Ashurov, S. S. (2022). The Importance of Rational Use of Natural Resources in the Economy and Specific Features of its Management. *American Journal of Economics and Business Management*, 5(11), 82-85.
31. Халилдинов, А. А. (2021). Иқтисодиётни рақамлаштиришда инновациялар. *Таълим тизимида ижтимоий-гуманитар фанлар*, 1(6), 296-301.
32. Халилдинов, А. А. (2021). Инвестиция сиёсатининг асосий йўналишлари. *Biznes-эксперт*, 1(6), 146-150.
33. Хакимов, Д. Р. (2022). Олий таълим тизимида янги иқтисодий механизmlарни шакллантириш. *Biznes-эксперт*, 1(6), 34-39.
34. Халилдинов, А. А. (2023). КИЧИК БИЗНЕС ВА ХУСУСИЙ ТАДБИРКОРЛИКНИ ТАШКИЛИЙ-ИҚТИСОДИЙ МЕХАНИЗМИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ. *Journal of new century innovations*, 21(2), 87-96.